



TA'LIM TIZIMIDAGI AXBOROT-KUTUBXONA MUASSASALARIDA
INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Mahfuza Shamsiyeva

Aliyeva Ravshanoy

Namangan viloyati Pedagogik

mahorat markazi o'qituvchilari

Аннотация: В данной статье освещаются цели и задачи информационно-библиотечных систем о поиске интерактивных методов и способов работы с читателями, а также о совершенствовании педагогического мастерства библиотекарей для повышения эффективности образования.

Ключевые слова: информационно-библиотечная система, библиотекарь, повышения читаемости, работа с читателями, «База данных», профессиональное мастерство, информационно-ресурсный центр.

Abstract: In given clauses is spoken about search of new methods, ways and modes of work with the readers, improving knowledge and pedagogical skill of the librarians for increase of a learning efficiency

Key words: the librarian, school library, increase of readership, job with the readers, professional skill, information – resource centre.



Insonning har qanday ongli faoliyati ilgari o'zlashtirgan axborotlarni qay darajada egallaganligiga asoslanadi. Kishining amaliy-kasbiy mahorati faoliyatlarga doir axborotlar egallanish darajasiga bog'liq ekan, demak, kutubxonachining bilimlilik pirovard natijasi ham o'quvchining kitobxonlik darajasini belgilaydi.

Hozirgi ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishda tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish alohida ahamiyatga ega. Umuman tarbiya jarayonida faoliyat va munosabatlarni insonparvarlashtirish, demokratlashtirish va erkinlashtirish innovatsion yondashuv deb qabul qilinmoqda[1,5-b]. Kitobxonlar bilan ishlash tizimini olib borishda kutubxonachi o'quvchi shaxsini hurmat qilish, uni e'zozlash, kechirimli bo'lish, kitob bilan ishlash jarayonida o'zini-o'zi rivojlantirish uchun ijodiy muhit yaratish, unga nisbatan do'stona munosabatda ish yuritish, ehtiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati iqtidori, ichki imkoniyatlarini ishga solishni maqsad qilib olishi kerak. Kutubxonachi shu jarayonda sub'ekt-sub'ekt hamkorligida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ijodiy muhitda olib boradi va kutilgan samaradorlikka erishadi.

Uzluksiz ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, kitobxonning axborot olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun zarur sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Shuningdek, Davlatimiz rahbarining 2017 yil 13 sentyabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi farmoyishi sohada amalga oshirilayotgan islohotlarni yangi bosqichda davom ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalarga bilim va tarbiya beruvchi asosiy manba kitobdir. Kitob o'qish maktabdagi ta'lim jarayoni bilan uzviy bog'liqdir, chunki bolalar muntazam o'qish san'ati bilan maktabda tanishadilar. Shu o'rinda maktabda o'quvchining o'quv fanlarini egallashi,



bilimlarni o'zlashtirishi va o'z ustida mustaqil ishlashiga bog'liq bo'lib, bu jarayon kutubxonalar zimmasiga yuklatilgandir [2, 4-b]

Zamonaviy kutubxonachining o'rni va roli, o'z-o'zidan uning izlanuvchanligida, o'zligini anglashida, bor mahoratini ishga solib «jarayon»ni amalga oshirishidadir [1,54-b]. Kutubxonachi tarbiya texnologiyasining loyihalovchisi ekanini anglab olmog'i va shu yo'nalishda boshqalarni ergashtirmog'i lozim. Umumta'lim maktab kutubxonalari faoliyatini o'quvchilar ongida milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish, ularni mustahkam e'tiqod egasi etib tarbiyalashning muhim markazi sifatida faoliyatni tizimli takomillashtirish yo'llarining nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish ham muhim o'rin egallaydi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ilmiy-tadqiqot va izlanishlarni muntazam olib borish lozimligini taqozo qilmoqda [3,58-b]

Zero, kutubxona o'quvchilarni darsdan keyin o'z bilimlarini mustahkamlaydigan, kengaytiradigan auditoriya sifatida xizmat qiladi. Keyingi yillarda yoshlar o'rtasida kitobxonlik, kitob mutolaasi borasidagi masala dolzarb bo'lib qoldi.

Bugun o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli bo'lgan ko'pgina ma'lumotlarni, asosan, ommaviy axborot vositalari va internet saytlaridan olishga muvaffaq bo'lmoqdalar. Bu ijobiy hodisa, albatta. Lekin bunday harakat natijasida o'quvchilarning ko'pchiligi kitob mutolaasiga loqayd bo'lib qolishmoqda. Ayniqsa, badiiy kitoblarning o'quvchilar tomonidan o'qilish darajasi qoniqarli emasligi kuzatishlarmiz natijasida ma'lum bo'ldi.

Turli axborot vositalari orqali kirib kelayotgan ma'lumotlarning barchasi ham o'quvchining ma'naviy darajasi, madaniyatini yuksaltirishga xizmat qila olmaydi.

Kitobxonga bo'lgan ishonchning yuqoriligi, muloqot madaniyatining yetuk darajada bo'lishi, o'quvchining majburlashdan voz kechish va aksincha, ularni rag'batlantirishning ustunligi tufayli kitobxonlikni oshirishdan ko'zlangan niyatga erishish maqsadida o'quvchi faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etishning samarali yo'llarini izlash zarur. Buning



uchun kutubxonachilarning o'zlari bilim va pedagogik mahoratlarni takomillashtirib, kitobxon bilan ishlashning yangi metodlari, vosita va yo'llarini izlashni uzluksiz olib borishlari talab etiladi. U kutubxonachining faoliyati va munosabatiga, uning yangilikka intilishi, uni izlab topishi kitobxon bilan ishlash jarayoniga kirita olish va motivatsiyasiga bog'liq jarayondir [1,91-b]

Ta'lim sohasida bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklardan boxabar bo'lish va ularni amaliyotda qo'llash, darslik, dastur va qo'llanmalarning, boshqa kerakli adabiyotlarning elektron variantlariga ega bo'lish albatta, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini ta'minlashga, ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot-kutubxona muassasalarida Respublikamizdagi yangiliklar, ijtimoiy-siyosiy voqealar, ma'naviy-ma'rifiy yangiliklar bilan tanishtirish maqsadida kitobxonlar bilan o'tkaziladigan "Ma'lumotlar bazasi" nomli noan'anaviy tadbir ham kitobxonlikni oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

"Ma'lumotlar bazasi" tadbirini tashkil etishda, albatta aniq voqea yoki respublikadagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, fan va madaniyat yangiliklariga tayanish hamda o'quvchilar yosh xususiyatlarini hisobga olinishi lozim. Tadbir davomida o'tkaziladigan suhbat uchun asosiy manba sifatida gazetalar, jurnallar, Internet ma'lumotlari va o'quvchilarni dars davomida olgan bilimlari bo'lishi mumkin. Bu ma'lumotlar dalillar asosida, qiziqarli bo'lishi kerak. Suhbatga materiallar tayyorlashda, kitobxonlar uchun mavzu bo'yicha savollar oldindan tayyorlab qo'yilishi lozim. Savollarning ba'zilari dalillarga asoslangan, ba'zilari esa, fikrlar bildirishga qaratilgan bo'lishi, kitobxonlarni mantiqan o'ylashga, dalillarni aniq keltirishiga va faollashtirishga olib keladi. "Ma'lumotlar bazasi" tadbiri davomida o'quvchilar mavzu bo'yicha yana qanday ma'lumotlarga ega ekanliklari, manbalarni qaerdan olish lozimligi kabi savollar orqali ularni kitobga bo'lgan ijobiy munosabatini yanada mustahkamlanadi. Bunday tadbirlarni



“Raqamli iqtisodiyot nima?”, “Globallashuv jarayoni va ekologiya”, “Ta’lim va yoshlar”, “Internet: nima yaxshi-yu, nima yomon?”, “Yangi O‘zbekiston yuksaklik sari” kabi mavzularda o‘tkazilishi maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchilar kutubxonachi yordamida ma’lumotlarni to‘plab, qiziqarli tarzda rasmlar va plakatlar ko‘rgazmalari, kitob va vaqtli matbuot nashrlari hamda, videoroliklar, videofilmlar va slaydlar orqali ishtirokchilarga ma’lumotlarni yetkazishadi. Bunday interfaol tadbirlar orqali kutubxonachilar o‘quvchilarda axborotni qidirish, o‘rganish va tahlil qilish qobiliyatini oshirish, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va tajribasini, tadbirlarda qatnashish orqali kommunikatsiya qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish, hamda o‘z-o‘zini boshqarish, faollik, hamkorlik va hozirjavoblik, izlanuvchanlik kabi sifatlarni shakllantirishga erishadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Yo‘ldoshev E.Kutubxonada bolalar o‘qishiga rahbarlik qilish.- T.: «Yangi asr», 2019.- 128 bet
2. F.Raxmatullaev.Barkamol avlod tarbiyasi- mamlakat taraqqiyoti omili.-// Tarbiya, 2010 yil, 3-son, 7 b.